

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

¹Karamatova Dilfuza Sadinovna

¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti, Toshkent, Uzbekistan,

²Safarbayeva Ro'zaxon Nabijonovna

²TDPU, BT-1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7309942>

Annotatsiya: Maqolada sharq ma'rifatparvar olimi Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, uning "Turkiy guliston yohud axloq" asari misolida boshlang'ich ta'lim va ma'naviy-axloqiy meroslari haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Abdulla Avloniy, ma'rifatparvar, olim, taraqqiyot, maktab, darslik, pedagog, o'qituvchi, faoliyat, tarbiya, jadid, yangi usul maktabi, ijodiyot, Turkiston, teatr, she'riyat.

Bugungi kunda shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni tarbiyalash va zamona ilmini o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. O'z davrida zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan ushbu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan ushbu ulug'vor g'oyalar yosh avlod tarbiyasi bilan nafaqat oila, balki butun jamiyat va mamlakat shug'ullanishi mumkinligi va muhimligini, shaxs barkamolligi, ma'naviy tarbiyasi har doim ham ma'rifat ahli, mas'ullar uchun asosiy dolzarb muammo sanalib kelishini ko'rsatadi.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentdagi Mergancha mahallasida to'quvchi-hunarmand Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. U dastlabki boshlang'ich ta'limni O'qchidagi eski usuldagi maktabda, keyin Shayxontoxurdagi Abdumalikboy madrasasida tahsil oldi. Avloniy o'z tarjimai holidi: "1891 yildan boshlab fakat kish kunlarida ukib boshka fasllarda mardikor ishladim", - deya yozgan edi. U bo'sh vaqtlarida arab, fors va rus tillarini o'rgangan, Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy Sheroziy kabi mutafakkirlarning asarlarini asl tilda sevib o'qib, o'zi ham she'r yozishga kirishgan. Biroq o'zbek pedagog olimi B.Qosimovning izlanishlariga ko'ra uning ilk yozilgan she'rlari bizgacha yetib kelmagan.

1904 yildan boshlab Abdulla Avloniyning ijodiy faoliyatida keskin o'zgarishlar vujudga kelgan: u Mirobod mahallasida yangi usul maktabini ochgan. Bu maktabda sinf-dars tizimida o'quvchilar jamoasining 6 oyda

savodlari chiqarilgan. Shuningdek, bolalarni bilimni aniqlash maqsadida ilk imtixon joriy etilgan edi.

Shu munosabat bilan ko'plab pedagogik manbalarda unga jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakili maqomi berilgan. "Jadid" so'zi arab tilida "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati vakillari aholini ijtimoiy-madaniy hayot darajasini yaxshilashga qaratilgan katta tarbiyaviy ishlarni amalga oshirib, taraqqiyotga chaqirdilar. Ularning asosiy g'oyasi Turkistonda ilg'or jamiyat, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ong darajasini ko'tarish orqali erishish mumkin bo'lgan milliy-demokratik davlat yaratish edi.

Jadidlarning vazifalari yangi usul maktablar tarmog'ini yaratish va kengaytirish, turli o'quv birlashmalari, teatr truppalari, gazeta va jurnallar nashr, va iqtidorli yoshlarning xorijda ta'lim olishi deb belgilangan edi.

1905 yilda Turkistondagi inqilobiy harakatlar natijasida "Taraqqiy", "Xurshid", "Tujjor" kabi ro'znomalar paydo bo'lgan. Avloniy ham tashabbus ko'rsatib, 1907 yil 4 dekabrda "Shuhrat" ro'znomasining birinchi sonini bosmadan chiqargan. Avloniyning ma'rifatchilik faoliyati jarayonida ijtimoiy hayot hodisalari ta'siridagi maqola va she'rlari ro'znomalarda bosilib chiqqan. U she'rlarida "Hijron", maqolalarini esa "mulla Abdulla", "Avloniy" yoki "Abdulla Avloniy" taxallusi bilan nashr ettirgan. Biroq xalqning ko'pchiligi savodsiz bo'lganligi sababli ularning ongiga kitob, gazeta va jurnallar yetib bormaydigan bo'lib qoldi.

So'ngra jadidlar o'zlarining asosiy faoliyat sohasi sifatida teatrni tanladilar. 1913 yilda Avloniy birinchi "Turkiston" nomli teatr truppasini tuzib, teatrchilik ishlari bilan ham shug'ullangan. Keyinchalik "Turon" deb nomlangan ushbu teatr truppa Hamzaning teatr trupпасi bilan birlashib, Hamza nomidagi akademik teatrga asos solgan.

1914-1915 yillarda Avloniy yaratgan teatr trupпасi Turkistonni bir qator o'lkalarida o'z faoliyatlarini namoyish kilib borgan. Mazkur truppada mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari ishtirok etishgan. Jumladan, ularda Mahmudxoja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Qodiriy pьesalari sahnalashtirilgan. Ularning o'zlari asarlar yozish bilan birga sahnalarda rollarni ijro etishgan. O'sha davrda Avloniy pьesalar yozib, ozarbayjon va tatar dramaturglarining asarlarini tarjima qilib borgan. Mazkur damatik asarlarda jaholatning fojiali oqibatlari, o'tmish qoldiqlari va ta'lim yo'qligi haqida gapirilgan.

Teatr tomoshalaridan tushgan mablag'lar bilan yangi usul ("usuli-jadid") maktablari ochilgan va unda mahalliy aholi farzandlari nafaqat o'qish-yozish, balki konservatizm va mutaassiblikdan xoli yangi dunyoqarashni

shakllantirishga qaratilgan. Islom asoslari bilan bir qatorda arifmetika, tarix, geografiya va tabiiy tarix ham o'rgatilgan. Sinfda o'qituvchilar o'z o'quvchilarini SHarq va G'arb yutuqlari bilan tanishtirishga harakat qilishgan va hokimiyat ta'lim tizimini isloh qilishga chaqirishgan.

Abdulla Avloniy ma'rifat va maorifni yoyishda katta fidoyilik ko'rsatgan. 1908 yilda katta qiyinchilik bilan Mirobodda yangi usuldagi maktab ochgan. Yangi usulda tashkil etilgan maktabda yer, xalq, tabiat va yulduzlar haqida dars berilishi bilan birga, unda din asoslari va dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi.

1909-yilda esa xayriya jamiyati tuzilib, tarbiyachi yetimlarga dars berila boshlagan. Biroq yangi o'quv tizimini yoyish uchun yangi darsliklarga ehtiyoj tug'ilgan.

SHu munosabat bilan Avloniy 1909 yildan 1917 yilgacha bo'lgan davrda o'zbek maktabi tarixi va pedagogik fikr taraqqiyotida katta rol o'ynagan 10 dan ortiq qo'llanma yozgan. SHu tariqa Pedagogika yangi bosqichga ko'tarilgan.

Abdulla Avloniyning «Birinch muallim» kitobi boshlang'ich maktabga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning oddiydan murakkab tamoyili asosida yozilgan. «Ikkinchi muallim» asari esa birinchi kitobning davomi va takomillashtirilgan shakli edi.

1917 yilda ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyning ijtimoiy-pedagogik qarashlari bayon qilingan "Turkiy guliston yohud axloq" kitobi nashr etilgan. Uni yaratishda yozuvchi xalq pedagogikasiga tayangan. Avloniyning fikriga ko'ra, tarbiya tug'ilishdan boshlanib, hayotning oxirigacha davom etadi. Muallif: "Tarbiyani kim va qaerda berishi kerak?" degan savolga tarbiya uy(oila)dan boshlanib, maktab va madrasada davom etadi, deya ta'kidlaydi. SHuningdek, Avloniy: tarbiya - bu ota-ona, o'qituvchi, mudarislar va davlatning vazifasidir, deb xulosa qiladi.

Mutafakkir asarda pedagog ta'limi, iste'dodi, dunyoqarashining kengligi va shaxsiy sifatlariga ham katta ahamiyat qaratgan. Uning fikricha, pedagogning fikrlash kuchi va kengligi dunyoqarashlari kengligiga bog'liq. Agar ustozlarning so'zlari amallariga zid bo'lsa, demak shogirdlar bunday axloqiy ta'limotlarga ishonishmaydi.

Kitobda vatanparvarlik masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan. Yozuvchi butun bir bobni Vatanga bag'ishlab, Vatanni shunchaki sevish emas, balki u bilan faxrlanish va bu sevgisini amallarida va o'z Yurtining yuksalishiga doir harakatlarida namoyon bo'lishi lozim, - deya ta'kidlaydi.

Shuningdek, Avloniy butun bir bobni ona tili va adabiyotiga ham bag'ishlagan. Uning yozishicha, til va adabiyot Yer yuzidagi har bir millat

mavjudligining ko'rsatkichidir. Milliy tilni yo'qotish millat ruhini yo'qotish demakdir. Bu bilan Abdulla Avloniy til pokligini himoya qilishga chaqirgan.

Kitob ikki qismga bo'lingan: yaxshi va yomon fazilatlarining tavsifi. Yomon fazilatlarini tasvirlashga bag'ishlangan XVIII bob mavjud. Muallif katta mahorat bilan o'z davrining og'riqli nuqtalari: jaholat, qonunsizlik, zulm bilan bog'liq bo'lgan qullik va turg'unlikni yoritadi. Xalqning huquqsiz hayoti yozuvchini mamlakat taqdiri haqida o'ylashga majbur qilgan. Abdulla Avloniy Vatan ozodligini hamma narsadan ustun qo'ygan. Unga olib boradigan yagona yo'l - bu bilim va ma'rifatdir.

"Turkiy guliston yohud ahlok" kitobi nafaqat XX asr boshlarida pedagogika taraqqiyotida, balki ijtimoiy va estetik tafakkur rivojlanishida ham sezilarli iz qoldirgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Abdulla Avloniyning ijodiy faoliyatini yoshlar qalbida yetkazishda o'zbek pedagog olimlari - A.Boboxon, B.Kosimov, F.N.Maxsumov va K.Oripovlarning xizmatlari kattadir. Masalan, o'zbek pedagog olimi B.Qosimovning "Izlay, izlay topganim", "Toshkent tongi", "Ma'rifat darg'alari", pedagog olimlar - A.Boboxonov va M.Maxsumovlar "Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati", "Turkiy guliston yohud axloq" asarlarini nashrga tayyorlashgan.

Shu yo'l bilan mamlakatimizda Abdulla Avloniyning nomi adabiyashtirilgan. Shuningdek, uning ijodiyotiga atab "Muzey" ham ta'asis etilgan. Sharq ma'rifatparvar olimi Abdulla Avloniy yoshlar va bo'lajak pedagoglar qalbida doim barhayotdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, boshlang'ich ta'lim jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish va hikoyalardan misollar keltirish, nafaqat o'quvchilarga munosib ta'lim berishda, balki komil inson qilib tarbiyalashda ham juda muhimdir. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida: «Alal - hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» deya ta'kidlaydi.

Demak, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy-milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi va davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: "O'qituvchi", 1992.
2. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития. – 2020. – С. 117-120.

3. Begali Qosimov, Shuhrat Rizaev. Abdulla Avloniy (1878-1934) - <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhratrizaevabdulla-avloniy-1878-1934/>

4. Paradaeva K. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish samaradorligi. «Abdulla Avloniyning ilmiy-pedagogik qarashlari» mavzusida xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari (10 iyul 2020 yil) – T.: TDPU, 2020.